

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI FAKULTETI**

**“Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil
dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va
oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari”
mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman**

MAQOLALAR TO‘PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI



**“GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MUSTAQIL
DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMI VA
OILADAGI MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI”**

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman

MAQOLALAR TO‘PLAMI

2024-yil 25-26-aprel

QO‘QON – 2024

UDK: 304.2

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami. – Qo'qon.: QDPI, 2024. 452 b

Mas'ul muharrir: f.f.n., dotsent Z.D.Boytemirova

Tahririyat hay'ati: f.f.n., dotsent M.M.Aminova
y.f.n., dotsent N.Siddiqov
f.f.f.d. (PhD) E.Sh.Oripov
f.f.f.d. (PhD), dotsent D.B.O'rinboyev

Taqrizchilar: f.f.f.d. (PhD) Z.Y.Xamroqulov
f.f.f.d. (PhD) O.I.Ortiqov
f.f.f.d. (PhD) B.J.Shamsiddinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi №76-sonli buyrug'iga asosan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur to'plam globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan mahalliy tajribalar almashinuvini ta'minlash, ijtimoiy famlar sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashda Qo'qon davlat pedagogika institutining faol o'rnini belgilash hamda Qo'qon davlat pedagogika institutini Respublikamizning ilg'or oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy va uslubiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida tayyorlandi.

Ushbu to'plam tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar, shuningdek, keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar.

UO‘K: 94:342.56(575.1) “XIX/XX”

MIROVOY SUDLARI FAOLIYATIDA ISH YURITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

Karimov Kaxramon Sadikovich

Dotsent, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Qo'qon, O'zbekiston

E-mail: qahramonjob876@umail.uz

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan Мировой судлари, huquqiy me'yoriy hujjatlar, notarial harakatlar tarixiga doir masalalar, mahalliy boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy, madaniy hayotga qilgan ta'siri, Turkiston o'lkasi qozilarning ish yuritish tartiblari, huquqiy asoslari va huquqiy qadriyatlarni qonunchilikda aks ettirilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'lim holati sodir bo'lgan jinoyatlar, bosqinchilik, talonchilik, qaroqchilik bo'yicha jinoyatlar, qog'oz aqcha (pul) chiqarib qalbakilashtirish bo'yicha jinoyatlar, telegraf simlari va ma'muriy binolarga zarar keltirgan jinoyatlar.

Каримов Кахрамон Садикович *Доцент кафедры истории Коканского государственного педагогического института, доктор философских наук, PhD*
qahramonjob876@umail.uz

Аннотация

В данной статье рассматриваются мировые суды, действовавшие в Туркестане в конце XIX – начале XX века, правовые нормативные акты, вопросы истории нотариальных действий, влияния на местное самоуправление, экономическую, политическую, социальную, религиозную, культурную жизнь, порядок делопроизводства судей Туркестанского края, правовые основы и законодательное отражение правовых ценностей.

Ключевые слова: преступления со смертельным исходом, преступления, связанные с вторжением, грабежом, пиратством, преступления, связанные с подделкой бумажных денег (денег), преступления, связанные с повреждением телеграфных проводов и административных зданий.

Kaxramon Karimov

*Associate Professor of History Department of Kokan State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy in History, PhD qahramonjob876@umail.uz*

Annotation

This article covers the issues of mirovoy courts, legal regulations, issues related to the history of notarial acts, their impact on local government, economic, political, social, religious, and cultural life, procedures for conducting business of the Kazakhs of the Turkestan region, legal foundations and legislative reflection of legal values, which operated in Turkestan in the late 19th – early 20th centuries.

Keywords: crimes in which a death occurred, crimes in raiding, robbery, piracy, crimes in counterfeiting by extracting paper Agate (money), crimes that damaged telegraph wires and administrative buildings.

Kirish

Turkiston tarixi, uning ma'muriy idora boshqarish usuli, XIX asr oxiri va XX asr boshlari, Turkiston general gubernatorligi tuzilgandan keyin hududdagi boshqaruv usuli, sud idora mahkamasi tarixini o'rganishda Turkiston o'lkasi qozixonalarida tuzilgan vasiqalar, hukmlar, xatlar, tilxatlar, iqror xati, inoyatnoma, dalolatnoma(akt), da'volar, qozilik ishlari reestr daftarlari kabi hujjatlar asosiy manba bo'lib hisoblanali.

Mavzuga oid Davriy matbuot materiallari tahlili

Manbalarning maxsus turi bo'lgan davriy matbuot materiallaridan ushbu tadqiqotni tayyorlashda unumli foydalanildi. Markaziy va mahalliy davriy nashrlardan “Sadoi Farg‘ona”⁷⁸(صدا فرغده), “Sadoi Turkiston”⁷⁹(صدای تورکستان), “Shuhrat”⁸⁰(شهرت), “Taraqqiy”⁸¹(ترقی), “Turkiston viloyatining gazetasi”⁸²(ترجیمان ولایتی گزتی), “Vaqt”⁸³(وقت), “Tarjimon”⁸⁴(ترجیمان), “Ulug‘ Turkiston”⁸⁵(الوغ تورکستان), “Xurshid”⁸⁶(خورشد), “Turk eli”⁸⁷(تورک ایلی) nomli gazeta va jurnallar tadqiq etilayotgan muammolarga jalb qilindi. Mazkur davriy matbuot nashrlari ichida “Sadoi Turkiston” gazetasi alohida o‘rin tutadi.

Tahlil va natijalar

⁷⁸ “Sadoi Farg‘ona” (صدا فرغده) gazetasi. 1914. – 3-yanvar. – 1-son.

⁷⁹ “Sadoi Turkiston” (صدای تورکستان) gazetasi. 1914. – 45-son.

⁸⁰ “Shuhrat” (شهرت) gazetasi. 1904. – 11-dekabr. – 2-son.

⁸¹ “Taraqqiy” (ترقی) gazetasi. 1906. – 2-yanvar. – 1-son.

⁸² “Turkiston viloyatining gazetasi” (ترجیمان ولایتی گزتی). 1870. – 31-avgust.

⁸³ “Vaqt” (وقت) gazetasi. 1907. – 10-fevral. – 1-son.

⁸⁴ “Tarjimon” (ترجیمان) gazetasi. 1889. – 1-son.

⁸⁵ “Ulug‘ Turkiston” (الوغ تورکستان) gazetasi 1917. – 2-son.

⁸⁶ “Xurshid” (خورشد) gazetasi. 1906. – 12-sentyabr.

⁸⁷ “Turk eli” (تورک ایلی) gazetasi. 1914. – 4-oktyabr. – 1-son.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

XIX asr oxiriga kelib jamida mavjud tuzum barqarorligi saqlashda sud tizimi faoliyat yetakchilik qilgan. Gunoh va ayb ishlarni guvohi bo'lgan, eshitgan holatlar bo'yicha:

- o'lim holati sodir bo'lgan jinoyatlar;
- bosqinchilik, talonchilik, qaroqchilik bo'yicha jinoyatlar;
- qog'oz aqcha (pul) chiqarib qalbakilashtirish bo'yicha jinoyatlar;
- telegraf simlari va ma'muriy binolarga zarar keltirgan jinoyatlar;
- amaldorlarga qarshi xatti-harakatlar sodir etilgan jinoyatlar;
- zaif va himoyasiz ayollar sha'niga tajovuz (zino) qilgan holatlarda eri, ota-onasi

tomonidan xabar berilgan jinoyatlar;

– o'g'irlik jinoyatlari uchatska pristaviga murojaat qilinib xabar berilishi kerak edi⁸⁸. Bu bo'yicha maxsus buyruq chiqarilib Turkiston genearl gubernatorligi hududlariga tarqatilgan.

Agar jinoyat sodir bo'lgan holatda guvohlik qilgan odam qay vaqtda, qaysi joyda bo'lgani, kim tomonidan sodir etilgani va nima sabab bo'lganini yaxshi anglagan holda o'sha joydagi komandir ya'ni harbiylarga murojaat qilishi kerak bo'lgan⁸⁹.

Qo'qon uyezd sudyasining kanselyariya hujjatlarida⁹⁰ hududlardagi mahalliy boshqaruv rahbariyatga yuborilgan 1882-yilgi hujjatlar va ko'rsatmalarda hukumat Senatining buyruqlari, farmonlari va sirkulyarlari ijro uchun yuborilgan. Mazkur hujjalarda mahalliy aholi hayoti va boshqaruvi bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va demografik masalalar oid topshiriqlar ko'rsatilgan. Jumladan, Turkistonda aholi o'rtasida qarz masalalarini va turli yozma hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi qoidalar keltirib o'tilgan.

Hujjatlardagi ma'lumotga ko'ra, harbiy gubernator, okrug va bo'lim boshliqlariga yuborilgan ma'lumotlarda mahalliy aholining katta qismi rus tili bilan umuman tanish bo'lmagani alohida ta'kidlangan. Rus tilini bilish nuqtayi nazaridan aksariyat hollarda, tabiiyki, savodlilik darajasi yuqori bo'lmagan. Turkiston o'lka aholisi uchun rus tilini bilish malakasi mavjudligi kasbiy mashg'ulotlari, turli xil rasmiy idoralariga murojaatlar bo'yicha ariza va shikoyatlar yozishdan iborat bo'lgan mas'ul shaxslar faoliyati uchun manfaatli bo'ladi, deyilgan. Xalq sudlari faoliyatida tajriba shuni ko'rsatadiki, rus tilidan savodi yuqori bo'lmagan shaxslar, ko'pincha maktubda ariza beruvchining fikrini mutlaqo noto'g'ri shaklda bayon qiladilar. Uning bayonotlarida mansabdor shaxslarning sha'ni uchun

⁸⁸ Gunoh va ayb ishlarni oshkara qilmoq xususida. (اشكارا قىلماغى خوصوصىده گناه و عيب اشلارنى). Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 5439. 1897. 4-varaq.

⁸⁹ Gunoh va ayb ishlarni oshkara qilmoq xususida. (اشكارا قىلماغى خوصوصىده گناه و عيب اشلارنى). Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 5439. 1897. 5-varaq.

⁹⁰ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 8-9-varaq.

haqoratli iboralarni kiritardilar. Yoki mutlaqo asossiz ravishda boshqa shaxslarni nazarda tutadilar. Bu esa aybsiz murojaat qiluvchining qonunlar oldida javobgarlikka tortadi.

Ba'zan xalq sudlarida faoliyat olib boruvchilar shaxsiy adovat ko'inishida o'zi uchun "chyorniy" shaxslarini bir qarashda sudlov jaryonida qonuniy va ishonchli ekspluatatsiya qilinishiga sababchi bo'lgan. Ayrim hollarda aholining oddiy ehtiyojlarini qondirish uchun hech qanday vositalarni mensimagan. Bu esa, barcha muassasalarda qasam ichish va yolg'on shikoyatlar sonini ko'paytiradi va kengaytiradi. Imperiya hukumati o'lkani va aholining manfaatini himoya qilish muqaddas burchi deb bilgan⁹¹. Aslida manbalarda keltirilgan mazkur ma'lumotlar haqiqatga to'liq mos kelishiga ishonish qiyin. Chunki, mahalliy aholi vakillarining mustamlaka tuzumi tomonidan qat'iy tartib to'liq nazoratga olingan xalq sudyalari faoliyatida ko'rilgan ishlarni amalga oshirishi mumkin emasdi.

Turkiston general gubernatorligi tomonidan bir necha bor mahalliy hokimiyat va muassasalarga berilgan iltimosnomalar va shikoyatlar, albatta, ularni tuzgan va qayta yozgan shaxslar tomonidan imzolanishi to'g'risida e'lon qilingan edi. Agar mazkur talab bajarilmasa, har qanday iltimosnoma ko'rib chiqilmagan hamda murojaatchi uchun natija bo'lmagan. Shu bilan birga, bu talab mahalliy iltimoslarga nisbatan "o'lik jon bilan yashash" kabi munosabatda bo'lingan. Mahalliy muassasalar va shaxslarning arxivlari, avvalgi buyruqqa zid ravishda qabul qilingan iltimos va shikoyatlarga to'la bo'lgan⁹².

Talab qilingan rasmiyatchilikni kuzatish natijasida shuni anglash mkmkinki, ariza va shikoyatlarni oddiy qaytarish etarli bo'lmagan. Chunki, aholi murojaatlariga bepisandlik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning barcha og'irligi faqat va faqat murojaat qiluvchiga tushadi. Ko'p hollarda da'vo ishi ko'rilish vaqtida yuzaga kelgan moliyaviy to'lovlar murojaatchi tomonidan qilingan hamda xarajatlarga sabr bilan ko'nishga majbur bo'ladi. Iltimosnoma tuzuvchi va yozuvchini murojaatini qanoatlantirish uchun qonunbuzarlikka qarshi muvaffaqiyatli kurashda alohida e'tibor qaratilishi zarur edi. Har bir holatda noto'g'ri ariza berish holati uchun ushbu arizalar muallafi va yozuvchisini sudga jalb qilish zarurligini inobatga olish zarur edi. Bu surishtiruv orqali ko'p hollarda odillikka erishish mumkin bo'lardi. Ammo jarayonlar to'liq holatda bunday bo'lmagan⁹³.

O'lka boshqaruv ma'muriyati buyruqlarning bunday buzilishi hukumat organlarining qonuniy talablarini bajarmaganligi sababi amaldagi me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan. Mirovoy sudyalari qoidabuzarlik uchun aybdorlarni tegishli jazolar bo'yicha javobgarlikka tortishni taklif qilingan⁹⁴.

⁹¹ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 8-9-varaq.

⁹² O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 8-9-varaq.

⁹³ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 9-varaq.

⁹⁴ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 9-varaq.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Turkiston general gubernatorligi tarkibidagi Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limi boshliqlariga yuborilgan topshiriqqa ko'ra, Turkiston hududida boshqa millat vakillari jumladan, hindlar tomonidan qarzlarini yig'ish uchun maxsus berilgan ishonchnomalarning katta qismi notarial tartibda tasdiqlangan.

Bu ishonchnomalar, o'z shaklida, savdo-sotiqqa oid bo'lmagani sababli, sudyalari notarius sifatida huquqiy harakatlarni amalga oshirgan. Notarial guvohlik berishda shahar daromadlari foydasiga yig'implarni undirilmagan.

Ruslar tomonidan hududda hindlar tomonidan amalga oshirilgan savdo operatsiyalarning mohiyatini o'rganib chiqilgan. Unga ko'ra, qarzlarini yig'ish ostida savdo xarakteridagi harakatlarni, ya'ni katta foizlar bilan kreditlarni qaytarib olishni va shu bilan birga ko'p hollarda pul bilan emas, balki chorva mollari yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan qoplanishini tekshirish kerakligi aniqlangan.

Shuning uchun savdo operatsiyalari faqat turli xil operatsion hiyla-nayranglar bilan niqoblangan va foiz stavkalarini oshirishmaslik uchun qilingan kombinatsiyalarni olidini olishga e'tibor qaratilgan. Shuni inobatga olgan holda, hindlar tomonidan aholidan qarzlarini yig'ish uchun berilgan barcha ishonchnomalarni savdo ishonchnomalari deb hisoblangan. Ularni shahar daromadlari foydasiga qonuniylashtirilgan yig'imga tortilgan. Bu masalada Rossiya imperatoriga doimiy ravishda ma'lumot berib borilgan. Ushbu holat ijrosi Farg'ona viloyat boshqarmasi bosh boshlig'i hamda Qo'qon viloyat sudyasiga yuklatilgan⁹⁵.

Turkiston o'lkasi aholisi o'rtasida qarzlarini ro'yxatdan o'tkazish va turli yozma shartlarni bajarish va tasdiqlash tartibi to'g'risida mustamlaka hukumati tomonidan ma'lum bir qoidalar joriy etilgan.

Mahalliy aholi va turli millat vakillarining o'zaro qarz oldi-berdi holatini izohlovchi yozuvlari ularga bergan shaxs tomonidan imzolanishi belgilangan. Mahalliy aholi va turli millat vakillarining yozma shartlari ikkala tomon tomonidan imzolanishi tartibi ko'rsatilgan. O'zaro qarz oldi-berdi holatini izohlovchi hujjatlar ostida bunday shartlar va shartnomalar qabul qilinish majburiyati bandi kiritilgan. Bitimni tuzayotgan ikki tomon bir-birining oldida birdek mas'ul bo'lardi⁹⁶.

Ko'chmas mulkni sotish, uning garovi, meros orqali unga egalik huquqini o'tkazish krepostnoylik* tartibida amalga oshirilishi belgilangan. O'qish-yozishni bilmaydigan ya'ni savodsiz shaxslar o'z hujjatiga boshqalarga imzo qo'yishi mumkin edi. Qozi yoki biy

⁹⁵ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 10-varaq.

⁹⁶ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 8-9-varaq.

* Krepostnoy huquq — pomeschchiklarning o'zlariga qarashli dehqonlarga, ularning mol-mulkiga, mehnatiga cheksiz egalik qilish huquqi.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

huzurida maxsus xodimlar imlo savodi bo'lmaganlar uchun imzoning haqiqiylikini tasdiqlagan. Hujjatning qisqacha mazmunini maxsus kitobga kiritilgan.

Qishloq yoki ovulda savodli shaxs bo'lmagan taqdirda, mukammal hujjat ikki ishonchli guvoh va qozi yoki biy tomonidan taqdim etilishi, hujjatning qisqacha mazmunini kitobga yozib qo'yishi, hujjatning o'zida o'tilgan. Shu bilan birga, shartlar tuzilganda guvohlar ikkala tarafdin mavjud bo'lishi zarur bo'lgan. Hujjatga tuzatish yoki qo'shimcha kiritilgan holatda o'zgartiruvchi shaxs tomonidan imzo qo'yilgan bo'lishi kuzatiladi.

Qozilar va biylarga imlo savodi bo'lmagan murojaatchilar tomonidan berilgan arzlar va ularning bajarilish hujjatlar mazmunini yozib olish uchun maxsus kitoblar beriladi. Kitobda yil, oy, kun, hujjatni bajaruvchilarning soni, ism va shariflari, uning qisqacha mazmuni tartib bilan yonma-yon yozilgan.

Reestr kitoblari bir kalendar yiliga beriladi. Yil oxirida qozilar va biylar tomonidan viloyatning rus sudyalari taqdim etiladi. Ular 10 yil davomida saqlanadi.

Aholining o'qish-yozishni bilmaydigan shaxslari tomonidan amalga oshirilgan hujjatlar yozuvlari uchun qozi va biyga maxsus kitoblarning dastlabki sahifasidagi birinchi eslatmada bo'lgani kabi bir xil tartib kuzatiladi. Bu kitoblar 10 yil davomida saqlanadi. Kitoblar biy va qozi hisobiga tayyorlanadi⁹⁷.

Xat-savodi yo'q kishilar uchun hujjatlarni tuzganlik yoki guvohlik berganlik uchun qozi yoki biylarga 1-jadvalda ko'rsatilgan bo'yicha haq to'lanadi:

1-jadval⁹⁸

№	Xarajatlar miqdori	Undirilgan xizmat haqi	
1.	10 rublgacha bo'lgan hujjatlarga	20 kopek (²⁰ /100 rubl)	
2.	50 rublgacha bo'lgan hujjatlarga	30 kopek (³⁰ /100 rubl)	
3.	100 rublgacha bo'lgan hujjatlarga	50 kopek (⁵⁰ /100 rubl)	
4.	500 rublgacha bo'lgan hujjatlarga	1 rubl	
5.	1000 rublgacha bo'lgan hujjatlarga	2 rubl	

1000 rubldan ortiq qiymatga ega bo'lgan hujjatlarni tuzish uchun to'lanadigan haq umumiy tartibda bo'lishi talab qilinadi.

Qarzlarni ro'yxatga olishda mavjud qoidalarga muvofiq yozma shartlarni qonuniylashtirish harakatlarni tuzish tartibiga amal qildirish kuchli ahamiyatga ega bo'lgan

⁹⁹.

⁹⁷ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 8-9-varaq.

⁹⁸ Jadval hujjatlarda ko'rsatilgan aniq dalillar asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁹⁹ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 8-9-varaq.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Yuqoridagi tartiblar va nota* qoidalariga muvofiq rus tilida imlo savodi bo'lmaganlar uchun imzoning guvohligi bo'yicha viloyat hokimlari va oqsoqollari tomonidan ijroga chiqadigan qog'ozlarni yozib olish uchun alohida qaydlar kitobi mavjud bo'lgan. Tabiiyki, mazkur hujjatlar ijrosini ta'minlanganlik jarayoni belgilab borilgan.

Mahalliy aholining murojaatlari, ariza va shikoyatlari bo'yicha topshiriqlar bir vaqtning Rossiya imperiyasi sudiga ham xalq sudlariga ham taqdim etilgan. O'zaro qarz oldi-berdi holati, ko'chmas mulkni sotish, uning garovi, meros orqali unga egalik huquqini o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan hujjatlar bo'yicha shuningdek, hujjatlarsiz, guvohlarning ko'rsatmalari bilan tasdiqlangan barcha da'volari shtamp to'lov qog'ozi, shtamplar qo'yish yoki pul badallari bilan to'lanardi. Odatda, da'vo yoki da'volar bo'yicha undirmalar bo'yicha to'lovlar xazina foydasiga undirilgan¹⁰⁰. Ko'rilgan ishlar natijasida jarimaga tortmasdan, hujjatlarni rasmiy qog'ozda aks ettirilmaslik holatlari uchun ham qozilar va biylarga tegishli kitoblar berilgan. Sudga taqdim etilgan hujjatlarda ko'rib chiqilgan da'volardan qozilik ishi xizmat to'lov miqdori ijro varag'ida ko'rsatilib, undirilgan to'lovni yozib olish uchun maxsus ustun kiritilgan. Bu holatda qozilar va biylar, shuningdek sudyalari faoliyatida tushunmovchilik bo'lmasligi uchun xalq sudlariga undiruv pullarini g'aznachilikka kiritish tartibi ham belgilab qo'yilgan¹⁰¹.

1882-yil 25-oktyabr sanasida Farg'ona viloyati uyezd boshliqlari, uyezd sudyalari, sud tergovchilariga jinoyat kodeksi va unga oid tuzatishlar yuzasidan mazkur qonunning 172-moddasidagi eslatmada chegaraning Rossiya tomonida jinoyat sodir etgan xitoyliklar o'z hukumatiga, shuningdek, jinoyatlar va chegaradagi Xitoy mulklarini sodir etgan Rossiya fuqarolari Rossiya hukumatiga hukm qilish uchun berilganligi bildirilgan¹⁰².

Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkin. Davlat Kengashining fikriga ko'ra, 1882-yil iyun oyining 8-kunida tasdiqlangan holatda Adliya vazirining xulosasidan ko'rinib turibdiki, ruslar chegaralarida sodir etilgan barcha jinoyatlar uchun xitoyliklar endi sud va Rossiya qonunlariga binoan umumiy asosda jazolanishi kerak edi (Kodeksning 170-moddasi).

Ma'lumot va yo'l-yo'riq uchun e'lon qilingan 172-moddaga eslatmani chiqarib tashlash to'g'risidagi fikr mustamlaka ma'muriyati tomonidan qabul qilindi hamda matbuotda chop etildi¹⁰³

* Nota — lot. nota — belgi, ogohlantirish.

¹⁰⁰ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 8-9-varaq.

¹⁰¹ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 17-varaq.

¹⁰² O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 34-varaq.

¹⁰³ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4 yig'ma jild, 34-varaq.

Turkiston harbiy okrugining okrug shtabi 1878-yil 30-avgustdagi 1556-sonli xati bilan shu yilning may oyida harbiy idoraning fuqarolik amaldorlaridan birini viloyat sudyasi tomonidan javobgarlikka tortish to'g'risida Turkiston harbiy okrugidagi ushbu amaldorlar viloyat sudyalariga jazoga tortilgan yoki yo'qligi to'g'risida xabar qilingan.

Bosh harbiy sud boshqarmasi ushbu masalani bekor qilishda, 1878-yil iyul oyining 17-sonli hamda 5471-sonli axborotida, Turkiston o'lkasida amalda bo'lgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida boshqaruv to'g'risidagi Nizom loyihasining §152-bandida faqat viloyat sudyalariga huquq va majburiyatlar berilganligi to'g'risida xabar berilgan.

1864-yil 20-noyabrda mirovoy sudlarda jazoga tortilganligini tekshirish bo'yicha qoidani viloyat sudyalari idorasi vakolatlarini belgilash va umuman, mirovoy sudyalar bilan viloyat sudyalarini barcha munosabatlarda ularga nisbatan ishlarning yurisdiksiya^{*}sini aniqlash masalasi emas, bulki ularning faoliyati nazarda tutilgan.

Yuqorida keltirilgan axborotnomadagi qoidalariga muvofiq, Sud jarayoni umumiy va harbiy sudning yurisdiksiyasini buzadi. Chunki bir tomondan yuqorida ko'rsatilgan 1876-yilgi Nizomning 150 va 154-bandlarida viloyat sudyalari idorasi va hokimiyatining chegaralari Mirovoy sudyalari bilan taqqoslaganda kengroq ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu sababli Turkiston o'lkasida 1859-yildagi Jinoyat Nizomining II kitobi o'z kuchi va ta'sirini saqlab qolishda davom etayotganligi sababli, ushbu hududda harbiy idoraning fuqarolik amaldorlarining yurisdiksiyasi aniq asosda aniqlanishi kerak edi. Vakolat jihatidan jinoiy ishlarning barcha turlari uchun harbiy sud hamda umumiy jinoyatlar uchun tuman sudyalari tomonidan sudga berilishi mumkin emasdi¹⁰⁴.

XUSOLA

Sud tizimida fuqarolarning murojaatlari jarayonida Turkiston o'lka aholisi uchun rus tilini bilish malakasi mavjudligi kasbiy mashg'ulotlari, turli xil rasmiy idoralariga murojaatlar bo'yicha ariza va shikoyatlar yozishdan iborat bo'lgan mas'ul shaxslar faoliyati uchun manfaatli bo'lashi alohida rag'batlantirilgan. Rus tilidagi arxiv manbalarida, rus tilidan savodi yuqori bo'lmagan shaxslar, ko'p hollarda maktubda ariza beruvchining fikrini mutlaqo noto'g'ri shaklda bayon qilashi, uning bayonotlarida mansabdor shaxslarning sha'ni uchun haqoratli iboralarni kiritilishi yoki mutlaqo asossiz ravishda boshqa shaxslarni nazarda tutishi keltirilgan. Bu esa aybsiz murojaatchining qonuniy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lgan. Aslida arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar haqiqatga to'liq mos kelishiga ishonish qiyin. Sababi, mavsumiy va doimiy

^{*} **YURISDIKSIYA** (lot. sud, sud ishini yuritish) — sud yoki ma'muriy organning muayyan faktlarga huquqiy baho berish, shu jumladan, nizolarni hal qilish va qonunda ko'zda tutilgan sanksiyalarni qo'llash bo'yicha vakolatlari doirasi.

¹⁰⁴ O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 38-varaq.

yashash tarziga ega mahalliy aholining Rossiya imperiyasi tomonidan o'rnatilgan ijtimoiy boshqaruv tuzumi tomonidan qat'iy tartibda to'liq nazoratga olingan xalq sudlarida bunday ishlarni amalga oshirishi mumkin emasdi.

Fodalanilgan adaiyotlar ro'yxati:

1. "Sadoi Farg'ona" (صدا فرغده) gazetasi. 1914. – 3-yanvar. – 1-son.
2. "Sadoi Turkiston" (صدای تورکستان) gazetasi. 1914. – 45-son.
3. "Shuhrat" (شهرت) gazetasi. 1904. – 11-dekbar. – 2-son.
4. "Taraqqiy" (ترقى) gazetasi. 1906. – 2-yanvar. – 1-son.
5. "Turkiston viloyatining gazeti" (ترجيمان ولايتى گزتى). 1870. – 31-avgust.
6. "Vaqt" (وقت) gazetasi. 1907. – 10-fevral. – 1-son.
7. "Tarjimon" (ترجيمان) gazetasi. 1889. – 1-son.
8. "Ulug' Turkiston" (الوغ تورکستان) gazetasi 1917. – 2-son.
9. "Xurshid" (خورشد) gazetasi. 1906. – 12-sentyabr.
10. "Turk eli" (تورک ايلي) gazetasi. 1914. – 4-oktyabr. – 1-son.
11. Gunoh va ayb ishlarni oshkara qilmoq xususida. (آشکارا قيلمآغى خصوصييده گوناه و عيب). Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 5439. 1897. 5-varaq. (اشلارنى).
12. O'zMA. I-510-fond, 1-ro'yxat. 4-yig'ma jild, 8-9-varaq.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

392-395	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA G'OYAVIY TARBIYANING USTUVOR YO'NALISHLARI
Yuldasheva Matluba Munavarovna	
396-399	SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTI RIVOJLANISHIDA MAFKURAVIY TARBIYA MASALALARI
Xodjayev O.Sh., Maxmudova Nozaninxon Nuriddin qizi	
400-402	O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO KONSTRUKTIVIZMNING ROLI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI
Xodjayev Olimxon Shavkatovich	
403-406	GLOBALASHUV JARAYONIDA IJTIMOY FAOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MAFKURAVIY JARAYONLARNING AHAMIYATI
Xodjayev O.Sh.	
407-410	OILADA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI
Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich, Juraboyeva Sadoqatbonu	
411-414	AMIR TEMUR HARBIY SA'NATI TARIXINI O'RGANISHDA "INDIVIDUAL DARS" SHAKLI ORQALI O'QUVCHILAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH
Raшидахон Муқимовна Аҳмедова, Тохир Ботиров	
415-420	MIROVOY SUDLARI FAOLIYATIDA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI
Karimov Kaxramon Sadikovich	
421-429	QOZI(SUDYA)LAR HUKM CHIQUVCHILAR VA TERGOV QILISH TARTIBLARI TARIXIDAN
Karimov Kaxramon Sadikovich	
430-436	QO'QON XONLIGIDA QOZILIK LAVOZIMIGA TAYINLASH MASALALARI
Karimov Kaxramon Sadikovich	
437-443	TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI
Xaydarova Dilorom Abduxamidovna	
444-448	